

MARKAZIY BANKNING HUKUMAT BILAN MUNOSABATLARI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Assistant:

Abduvahobov Shaxzod

Talaba:

Ibodullayev Jahongir

Annotatsiya: *Ushbu maqola bank ishi asoslari fanining markaziy bankning hukumat bilan munosabatlari mavzusini rivojlantirishga bag'ishlangan. Shuningdek, markaziy bankning vakolati va huquqlari haqida malumot olish ham ko'zda tutiladi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, markaziy bank haoliyatiga yangilanishlar kiritish bank rivojiga katta hissa qo'shadi.*

Kalit sozlar: *markaziy bank, pul kredit siyosati, naqd pul siyosati, xalqaro valyuta fondi.*

Аннотация: *Данная статья посвящена развитию темы взаимоотношений центрального банка с государством в науке об основах банковского дела. Также предусмотрено получение информации о полномочиях и правах центрального банка. Также следует отметить, что внедрение обновлений центрального банка будет во многом способствовать развитию банка.*

Ключевые слова: *центральный банк, денежно-кредитная политика, денежно-кредитная политика, международный валютный фонд.*

Abstract: *This article is devoted to the development of the subject of the central bank's relations with the government in the science of the basics of banking. It is also envisaged to obtain information about the powers and rights of the central bank. It should also be mentioned that the introduction of updates to the central bank will greatly contribute to the development of the bank.*

Key words: *central bank, monetary credit policy, monetary policy, international monetary fund.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki — O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan „Banklar va bank faoliyati to'g'risida“ qonuniga muvofiq, mamlakatning Davlat banki sifatida tashkil etilib, 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankiga aylantirildi. Markaziy bankning faoliyati asoslari „O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida“gi qonunida (1995-yil 21-dekabr) belgilab berilgan. Markaziy bank o'z sarf-harajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiradigan, iqtisodiy jihatdan mustaqil yuridik shaxs bo'lib, davlatning mutlaq mulki hisoblanadi. Markaziy bankning asosiy vazifalari milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash, monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish, respublikada hisob-kitobning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash, banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish.

Markaziy bank:

O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalarini belgilaydi;

bank tomonidan milliy va chet el valyutasida mijozlarning hisobvaraqlarini ochish, yuritish va yopish tartibini belgilaydi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida pul belgilarini muomalaga kiritadi va muomaladan chiqaradi;

qimmatbaho metallardagi aktivlarni to‘ldirish uchun davlatning affinlangan oltin sotib olishga bo‘lgan ustuvor huquqini amalga oshiradi;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan quymalarni muomalaga chiqaradi;

qimmatbaho metallardan tayyorlangan pul belgilarini sotib olish va sotish tartibini belgilaydi;

banklar tomonidan qimmatbaho metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilaydi;

o‘zi belgilaydigan tartibda va shartlarda banklarga qisqa muddatli kreditlar, shuningdek likvidlikni tezkor sur‘atda qo‘llab-quvvatlash uchun kreditlar beradi;

Oldingi tahrirga qarang.

banklar faoliyatini litsenziyalashda, mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlarini hisob ro‘yxatidan o‘tkazishda, shuningdek banklar, mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, lombardlar va banklar guruhlarini faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishda asoslantirilgan mulohazadan foydalanadi;

o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan axborotni davlat organlari va tashkilotlaridan so‘rab oladi;

o‘z balansida aks ettirilgan mol-mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi;

o‘z tasarrufidagi tashkilotlarni, shu jumladan valyuta birjasini tashkil etadi;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi, shu jumladan chet el hukumatlariga, boshqa davlatlarning markaziy banklariga bank xizmatlarini ko‘rsatadi;

boshqa davlatlarning markaziy banklarida va xalqaro moliya institutlarida O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini o‘z vakolatlari doirasida ifoda etadi;

chet davlatlarda vakolatxonalar ochadi;

obligatsiyalar emissiyasini amalga oshiradi;

o‘z nomidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining topshirig‘iga binoan O‘zbekiston Respublikasi nomidan kliring va to‘lov bitimlari tuzadi;

Markaziy bank:

pul-kredit siyosatini, shu jumladan valyuta siyosatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

O‘zbekiston Respublikasida inflatsiya darajasini monitoring, tahlil va prognoz qiladi, tegishli axborot materiallarini hamda statistik ma’lumotlarni e’lon qiladi;

O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansini, xalqaro investitsiyaviy mavqeyini, tashqi qarzini va zaxira aktivlarini o‘z ichiga olgan bank, pul-kredit statistikasini, tashqi sektor statistikasini shakllantirishni hamda e’lon qilishni amalga oshiradi;

har yili O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga Davlat budjeti loyihasini tayyorlashga doir tavsiyalarni o‘z ichiga olgan iqtisodiy va moliyaviy masalalar bo‘yicha axborotni taqdim etadi; naqd pul muomalasini tashkil etadi;

valyutani tartibga solishni va valyutani nazorat qilishni amalga oshiradi;

valyuta operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish uchun valyuta kursini muntazam ravishda belgilab boradi;

banklarni va kredit byurolarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiradi;

Xulosa: Markaziy bank – mamlakatdagi narx darajasi, bank tizimining barqarorligi hamda to'lov tizimining barqaror faoliyati uchun mas'ul bo'lgan muassasadir. Buning uchun pul-kredit siyosatini olib boradi, tijorat banklar, to'lov tashkilotlar, hamda bir necha nobank kredit tashkilotlar (MKT, lombarlardlar va boshqalar) faoliyatini litsenziyalaydi, tartibga soladi va nazorat qiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, maekaziy bankning hukumat bilan munosabati haqida malumot olish markaziy bank rivojiga hissa qo'shishda qo'l keladi deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Possibilities of Increasing the Activity of Banks in the Securities Market, Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP), Volume 02 Issue: 03/2023 ISSN: 2751-7551 (159-162)

2. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Analysis of Existing Management Mechanisms and Assessment Methods of The Bank's General Financial Risk, Journal of Intellectual Property and Human Rights, Volume:02 Issue: 05/ May-2023, ISSN:2720-6882 (227-231)

3. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Improverment of Investment Activities in the Service Sector, Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES), Volume:02 Issue:03/2023 (53-58)

4. Абдувахобов Шахзод Холмўмин уғли, Factors Causing Credit Risks in Commercial Banks and Their Assessment, Journal of Intellectual Property and Human, Volume:02 Issue:05/May-2023 ISSN:2720-6882 (221-226)

5. www.lex.uz -O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

6. www.nbu.uz - O'zbekiston milliy banki.